

UMAR IBN XATTOBNING ADOLATPARVARLIK HAYOTI

Ilmiy rahbar: Xurshid Samatov O'lmasjonovich

Bunyod Xolmirzayev Sirojiddin O'g'li

Toshkent Axborot Texnologiyalar Universiteti

Samarqand filiali talabasi.

Telefon raqam: +9989904772305

Elektron pochta: bunyodxolmirzayev049@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola ibn Xattobning hayoti va adolatliligi, islom diniga qilgan amallari haqida bayon etildi.

Kalit so'zlar: adolat, islom, hayot, ibn Xattob, din, fikr.

Umar ibn al-Xattob al-Forud (Umar ibn Xattob) taxminan 584-yilda fil yilidan o'n uch yil o'tib tavallud topgan. Otasi Xattob Quraysh boshliqlaridan bo'lgan. Onasi Hamna binti Hoshim edi. Ammasining o'g'li Valid ibn Mug'ira Xolid ibn validning otasi bo'lgan. Bolalari ; o'g'li Abdulloh ibn Umar Nabiyning fellariga eng kop ergashgan sahobalardan. Qizi Hafsa Nabiyning zavjasidir. Umarning Fotima va Osim ismli farzandlari ham bo'lgan. Qolgan uch farzandini Nabiyning : " Allohga ismlarning eng yoqimlisi << Abdulloh>> va <<Abdurahmon>>dir degan hadislarini eshitgach uchalasini ham bitta nom bilan atagan ; "katta Abdurahmon" "O'rtancha Abdurahmon" va " kichik Abdurahmon ". Umar ibn Xattobning uch laqabi bo'lgan. "Abu Hafs" "Foruq" "mo'minlar amiri". "Abu hafs" deb qizi Hafsaga nisbatan ham aytilgan degan fikr ham bor. Ikkinchi laqabi "Foruq" Nabi; "Sen Foruqsan, yani ALLOH sen orqali haq bilan botilning Orasini ajratadi" deya marhamat qilganlar. Uchinchi laqabi esa "mo'minlar amiri" edi. Umar ibn Xattob islomni qabul qilishidan avval Rasululloh " Allohim, Islomni Umar ibn Xattob yoki Amr ibn Hishom bilan kuchli etgin" deb duo qilganlar. Bu ikkisidan yaxshisi, mahbubi va azizi Umar ibn XAttob edi. Ertasiga Umar

Rasulullohning Oldiga borib musulmon bo'ldi. Johiliyat jamiyat ruhida o'sgan Hazrati Umar islom yangi paydo bo'lganida, unga qattiq qarshilik ko'rsatganlardan biri edilar. Lekin u kishining sof tabiatlari o'zini ko'rsatishi turgan gap edi. Buning ustiga Payg'ambar (s.a.v) duolari qabul bo'ldi. Umar radiyallohu anhu tana tuzilishlari haqida ham roviylar malumot qoldirganlar. Umar radiyallohu anhu novcha, jussador, kal, oppoq, ikki yanoqlari qizil odam bo'lgan ekanlarodamlar orasida haybatidan darak berar edi. Umar ibn Xattob bo'yi uzun bo'lganidan kelayotganini ko'rgan odam uni ot minib olgan deb o'ylardi. Mushaklari baquvvat, mo'ylovi enli, o'zioq-sariqdan kelgan, chiroyli yuzli kishi bo'lgan. Yurganida tez shaxdam shaxdam qadam tashlardi. O'ktam ovozda gapirar, xayol bilan turgan odam tovushidan qo'rqib ketishi mumkin edi. Bu uning Umar ibn Hattob judda aqilli, kuchli va rostgo'y bo'lgan. Umarda boshqalarda bo'lmagan jurat bor edi. Shuning uchun otasi qatnashadigan kengashlarda tengdoshlaridan ko'ra ertaroq qatnasha boshlagan. Haamma masulyatli ishlarni Umarga topshirishar edi. Islomni qabul qilishdan avval ham keyin ham. Umar ibn Xattob johilliyat davrida Qurayshning ashroflaridan hisoblanib Umarga elchilik vazifasi topshirilgan edi. Orada urush chiqib qolsa u kishi elchilik qilar edi. Islomni taxminan 616-yili qabul qilgan. Muhammadning yaqin safdoshlaridan biri, u olib borgan barcha janglarda qatnashgan. Abu Bakr o'limidan avval Umarni o'z o'rniga tavsiya etgan. Umarning xalifalik davrida islom Iroq, Suriya, Misr, Liviyaga tarqaldi. Eron hududlari xalifalikka qo'shildi. Arab-musulmon saltanati tarkib topa boshladi. Uning davrida barcha asosiy ma'muriy-huquqiy muassasalar, avvalo soliq-o'lpon tizimi tuzildi. Musulmonlar jamoasi tez orada ruhoniylar idora etadigan davlatga aylandi. Bu hol Umar xalifa unvoniga birinchi bo'lib qo'shimcha amir al-mo'minin (mo'minlar hukmdori) unvonini qabul qilishida ham ifodalandi. Umar yangi musulmon yil hisobi — hijriy yil taqvimini joriy etdi. Sunniylar tarixiy an'anasida Umar risoladagidek hukmdor, ya'ni taqvodor, musulmonlarga nisbatan adolatli, dushmanlarga beshafqat inson sifatida ta'riflanadi. Uning davri islomning „oltin asri“ deb ulug'lanadi. Umar Muhammadning Madinadagi qabri yoniga dafn etilgan. Umar ibn Hattobdan so'ng Usman ibn Affon mo'minlarga amir bo'ladi. Musulmonlar safi kengayib borayotganini

kuzatib turgan Umar (Islomni qabul qilmasidan ilgari) Nabiyni o'ldirishga qaror qiladi. Makka ko'chalaridan qilichini yalang'ochlaganicha Rasulullohning uylari tomon yura boshlaydi. Uni sahobalardan biri ko'rib qolib: "Yo'l bo'lsin, ey Umar", deb so'raydi. Umar: "Muhammadning oldiga, uni o'ldiraman va Qurayshni undan qutqaraman", deydi. Sahoba Nabiya zarar yetib qolishidan cho'chib: "Bani Abdulmutallib bunga yo'l qo'yadi deb o'ylaysanmi?" deydi. Bu gapni eshitgan Umar: "Qarasam, sen ham Muhammadga ergashganga o'xshaysan, dindan chiqibsan", deb tahdid qiladi. Sahoba: "Yo'g'-e, bunday emas. Lekin, ey Umar, oldin o'zingning etagingni yig'ishtir, Muhammadning huzuriga borishdan oldin singling va kuyovingni tarbiyalab ol. Ular Muhammadga ergashib ketishgan", deydi. Bu gapdan Umarning tepa sochi tikka bo'ladi va singlisining uyiga yo'l oladi. Sahoba esa tezda Nabiyning huzurlariga borib, u kishini vaziyatdan ogohlantiradi. Umar singlisining uyida kuyovi Saidni ushlab olib: "Diningdan qaytib, Muhammadga ergashibsan, shundaymi?" deb do'q uradi. Said: "To'g'ri yo'l sening diningdan boshqa dinda bo'lsa-chi?" deb e'tiroz bildirgani zahoti kuchli zarba yeydi. Umar Saidning ustiga o'zini otib, ayovsiz ura boshlaydi. Yuziga urayotgan vaqtida Fotima binti Xattob kelib qoladi va Umarni eridan nari qilishga urinadi. Fotima akasiga: "Akajon, to'g'ri yo'l sening diningdan boshqa dinda bo'lsa, nima deysan?!" deydi dadillik bilan. Natijada bir tarsaki yeydi. Shu paytda bexosdan qo'lidagi varaq tushib ketadi. Buni ko'rgan Umar: "Uni menga uzat-chi!" deydi buyruq ohangida. Singlisi: "Sen nopoksan, bunda esa Allohning kalomi bor, uni faqat pok kishilargina ushlaydi, borib yuvib kel", deydi. Umar yuvib kelgach, qog'ozni o'qiy boshlaydi. Bu Toho surasi edi: «To, ho. (Ey Muhammad!) Biz Sizga bu Qur'onni (din ishida) mashaqqat chekishingiz uchun emas, balki (Allohdan) qo'rqadigan kishilar uchun eslatma sifatida nozil qildik. (U) Yerni va yuksak osmonlarni yaratgan zot (Alloh tomoni)dan nozil qilingandir. (U) Arsh uzra "mustaviy" bo'lmish Rahmondur. Osmonlardagi, Yerdagi va ularning orasidagi hamda zamin ostidagi bor narsa Unikidir. Agar (Siz) oshkora gapirsangiz ham (yoki xufiyona gapirsangiz ham), albatta, U sirni ham, eng maxfiy narsalarni ham bilur. Alloh – Undan o'zga iloh yo'qdir. Uning "Asmoi Husno"si (go'zal ismlari) bordir» (Toho, 1–

8). Shundan so‘ng Umar: “Bu so‘zni faqat olamlarning Rabbisi ayta oladi. Laa ilaha illalloh, Muhammadur Rasululloh. Meni Muhammadning huzuriga olib boringlar”, deydi. Xabob ibn Arot uning oldiga chiqib: “U zot Arqam ibn Abu Arqamning xonadonidadir. Men senda Rasulullohning : “Allohim, Islomni Umar ibn Xattob yoki Amr ibn Hishom bilan kuchli etgin”, deya qilgan duolarining ijobatini ko‘ryapman”, deydi. Umar ibn Xattob bu gapdan xursand bo‘lib ketdi va Arqamning uyiga borib eshik qoqdi. Umar ichkariga kirgach, Payg‘ambarimizning tizzalariga o‘zini tashlaydi. Shunda Rasululloh : “Endi imon keltirasanmi, ey Umar”, deydilar. Umar ibn Xattob: “Allohdan o‘zga iloh yo‘qligiga va Muhammad Uning bandasi va rasuli ekaniga guvohlik beraman”, deya shahodat kalimasini aytadi. Nabiy unga jannat bashoratini berganlar. Abu Muso Ash‘ariy aytadi: «Men Nabiyni masjididan izladim. Topolmagach, u zotning qaerdaliklarini so‘radim. Menga hozirgina chiqib ketganlarini aytishdi. Aris qudug‘iga yetganimda, u zot oyoqlarini quduqqa solib o‘tirgan ekanlar. Eshikbon bo‘lib turishni maqsad qildim. Shu payt Abu Bakr keldi. Unga: “Bugun men eshikbonman. Rasululloh ruxsat bermagunlaricha ichkariga kirmaysan”, deb aytdim. Abu Bakr hayron bo‘ldi va ruxsatni kutib turdi. So‘ng Rasulullohning yoniga borib: “Ey Allohning rasuli, Abu Bakr sizdan kirishga izn so‘rayapti”, deb aytdim. Rasululloh uning kelganidan xursand bo‘lib, tabassum qildilar va: “Kirishiga ruxsat ber va unga jannat bashoratini ham ber”, deya marhamat qildilar. Aytganlariday qildim. Abu Bakr ichkariga kirib, Payg‘ambarimizning yonlariga o‘tirdi va u ham oyoqlarini quduqqa solib oldi. Shu vaqt hazrat Umar kelib qoldi. Endi ichkariga kirmoqchi bo‘lganida “Bugun men eshikbonman, Rasululloh ruxsat bermagunlaricha ichkariga kirish yo‘q”, deb aytdim. Nabiy unga ham ijizat berib, jannat xabarini aytdilar». Kunlarning birida Rasululloh ashoblari orasida o‘tirganlarida: “Abu Bakr qanday ham yaxshi inson, Umar qanday ham yaxshi inson”, deya marhamat qildilar. Boshqa bir kuni Nabiy masjidga kiriboq: “Abu Bakr qaerda? Oldimga kelsin. Umar qaerda? Oldimga kelsin”, deb aytdilar. Oldilariga kelganlarida esa, ikkisining ham qo‘lidan tutib: “Qiyomat kunida xuddi shunday qayta tirilamiz”, dedilar. Hasan Basriy bunday hikoya qiladi: «Qiyomat kuni Islom odam suratida keladi. So‘ng odamlarga

birma-bir qarab: “Ey Rabbim, mana bu menga yordam berdi, mana bu meni xor qildi”, deb aytadi. So‘ngra Umar ibn Xattobga qarab uning qo‘lidan tutadi va: “Ey Rabbim, mana shu kishi Islomni qabul qilguniga qadar men g‘arib edim”, deydi». Nabiyy aytadilar: «Tushimda jannatda ekanim ko‘rsatildi. U yerda katta qasr ko‘rdim. Shunda men: “Bu qasr kimniki?” deb so‘radim. Menga: “Bu qurayshlik kishining qasri”, deyildi. “Menikimi?” deb so‘radim. “Yo‘q, bu Umar ibn Xattobning qasridir”, deyishdi».

Yana bir hadisda Nabiyy aytadilar: «Tushimda jannatda ekanim ko‘rsatildi. U yerda ulkan qasrni ko‘rdim. Qasr oldida bir ayol tahorat olayotgan edi. Haligi ayoldan: “Bu qasr kimniki?” deb so‘radim. U: “Umar ibn Xattobniki” deb javob berdi. “Shunda Umarning rashkini eslab, u yerga kirmay ketdim”, dedilar. Bu gapni eshitgan hazrat Umar yig‘laganicha: “Men sizdan rashk qilamanmi, ey Allohning Rasuli?!” dedi».

Quraysh ayollari Payg‘ambarimizdan dinni o‘rganayotgan edi. Gaplashayotgan vaqtlarida tovushlarini Nabiyyning ovozlaridan yuqori ko‘tarib yuborishdi. Shu payt hazrat Umar eshik taqillatib qoldi. Uning ovozini eshitgach, ayollarning dami ichiga tushib, qo‘rqib ketishdi. Nabiyy esa kulib yubordilar. Hazrat Umar ichkariga kirganida unga: “Bilasanmi, Umar, anavi ayollar mening huzurimda gaplashib o‘tirib, ovozlarini menikidan baland ko‘tarayotgan edilar. Sen kelishing bilan jim bo‘lib qoldilar, nafasleri ichiga tushib ketdi”, dedilar. Shunda Umar: “Ey Allohning rasuli, sizdan qo‘rqishlariga haqliroqsiz”, dedi va ayollarga qarata: “Ey o‘z jonining dushmanlari, mendan qo‘rqasizlar-u, Allohning rasulidan qo‘rqmaysizlarmi?!” dedi. Ayollar unga javoban: “Axir sen qo‘polsan-da”, dedilar. Payg‘ambar kulib yubordilar va: “Ey Umar, agar shayton senga yo‘lda duch kelib qolsa, o‘ziga boshqa yo‘l topib ketadi”, dedilar.

Bir rivoyatga ko‘ra, Rasululloh : “Tushimda men tarozining bir pallasiga, ummatim esa ikkinchi pallasiga qo‘yildi. Men og‘ir keldim. So‘ngra Abu Bakr bir pallaga va ummat bir pallaga qo‘yildi. Abu Bakr og‘ir keldi. So‘ng Umar bir pallaga va ummat ikkinchi pallaga qo‘yilgandi, Umar og‘ir keldi”, deya marhamat qilganlar.

“Nima uchun tilanchilik qilyapsan?” deya so‘radi yo‘lda gadoychilik qilib o‘tirgan kishidan hazrat Umar kunlarning birida. Haligi yahudiy: “Jizya to‘lash uchun mol

yig‘yapman”, deb javob qildi. Hazrat Umar : “Biz sendan yoshligingda jizya olib, endi qarib-keksayib qolganingda tilanchilik qilishga tashlab qo‘yibmiz-ku! Yo‘q, Alloh haqqi, senga albatta nafaqa beramiz”, dedi va qariyaga bundan oldin tilanchilikdan tushgan narsalarni egalariga qaytarishini buyurdi va o‘sha ondan boshlab barcha Islom o‘lkalariga u yerda yashaydigan barcha yahudiy va nasorolarning qariya va nogironlari, bolalari va ayollariga moddiy yordam berilsin, deb amr qildi. Hazrat Umar tunlari Madina ko‘chalarini aylanib yurishga odatlangan edi. Ana shunday sayrlarning birida go‘dak yig‘isini eshitib qolib, yaqinlashdi va ichkaridan erkak kishining: “Bolaga nima bo‘ldi? Alloh haqqi, uni emizgin!” degani va ayol kishining: “Borib bolaga yegulik olib keling”, deb javob qaytarganini eshitib qoldi. Umar yana bir kecha ularning eshigi oldidan o‘tdi. Ichkaridan yana erkak kishining: “Alloh haqqi, bolani emizsang-chi”, degan tanbehi eshitildi. Umar uchinchi kecha ana shu uyning oldida tunab qoldi va erning g‘azab aralash: “Senga o‘xshagan onani hech ham ko‘rgan emasman, nima bo‘ldi o‘zi?” deb so‘ragani, ayolning: “Meni tinch qo‘ying, Umar ibn Xattob faqat ko‘krakdan ajragan bolalar uchun maosh to‘laydi, mening bolam esa emadi”, deganini eshitdi. Bu gapdan so‘ng hazrat Umar yig‘lab yubordi. Ko‘p yig‘laganidan bomdodda imomlikka o‘tib berolmadi. Bu holga tushunmay turgan musulmonlar namozdan so‘ng shavkatli amirning: “Ey Umar, Qiyomat kunida sho‘ring quriydigan bo‘ldi. Qanchadan-qancha bolalarning haqiga zomin bo‘lding”, deya o‘zini malomat qilganini eshitishdi. So‘ngra Umar : “Ey odamlar, Alloh haqqi, bugundan boshlab, bolalaringizni sutdan ajratmang. Qiyomat kunida ular tufayli so‘roqqa tutilmasligim uchun Islomda tug‘ilgan har bir go‘dakka maosh tayin qilaman”, dedi. Bir kuni hazrat Umar : “Ey odamlar, agar boshim bilan dunyoga sho‘ng‘ib ketsam nima qilasizlar?” deb so‘radi. Hech kim biror so‘z aytmadi. U bu savolini uch marta qaytardi. Shunda odamlar orasidan bir kishi turib: “Agar boshing bilan dunyoga sho‘ng‘iydigan bo‘lsang, sen bilan qilichimiz orqali gaplashamiz!” dedi. Shunda hazrat Umar : “Muhammad ummatidan Umarni to‘g‘rilab qo‘yadigan kishini paydo qilgan Zotga hamdu sano bo‘lsin”, deya Allohga hamd aytdi.

Umar ibn Xattobdan mag'lubiyatga uchragan Hiraql musulmonlar amiri bilan uchrashish uchun elchi jo'natadi. Elchi Madina ko'chalaridan yurib, mo'minlar amirining qasrini qidira boshlaydi. Bir kishidan so'raganida: "Mana shu yo'ldan borsang, uni uchratasan", degan javobni oladi. Yo'lda ekanida unga boshqa bir kishi: "Daraxt tagida uxlab yotgan kishini ko'ryapsanmi, ana o'sha mo'minlarning amiridir", deydi. Shunda elchi boshining tagiga oyoq kiyimini qo'yib, terga botib uxlab yotgan Umarni ko'radi va: "Adolatli hukm surib, xotirjam uxladimg. Biz esa podshohlik qurib, zulm qildik va qo'rqib bedor bo'ldik. Ey musulmonlar, shu sabab bizning ustimizdan g'olib bo'ldinglar", dedi.

Mana bunday adolat, mehr muruvvat faqatgina bizning dinimizda islom dinimizda bo'ladi. Shunday ekan sahoba, xalifa Umar ibn Xattob islom olamida adolat namoyondalaridan biri bo'lib qoldi.

Foydalanilgan adabiyodlar ro'yhadi

1. <https://islom.ziyouz.com/siyrat/xalifalar/umar-ibn-xattob-r-a>
2. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Umar>
3. Samatov K. Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society //Theoretical & Applied Science. – 2016. – №. 2. – C. 175-179.
4. Samatov, Khurshid. "Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society." Theoretical & Applied Science 2 (2016): 175-179.
5. Samatov, K. (2016). Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society. Theoretical & Applied Science, (2), 175-179.